

---

## TOSHLOQDA YANGI YIL SHUKUHI

Ayni kunlarda Toshloq tumanida Yangi yil bayram tantanalari bo'lib o'tmoqda. Bayram munosabati bilan tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev ham sektor rahbarlari tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 15-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida hamda 2-DMTTlarida bo'lib, bolajonlarning qalbiga bir olam quvonch va shodlik ulashdilar.

Bolajonlarga o'zgacha bayram kayfiyatini ulashish maqsadida tuman hokimi ushbu muassasalarga Qorbobo kiyimida tashrif buyurdi. Tuman rahbari barchani yangi yil bayrami bilan tabriklab, bolajonlarga yangi yil sovg'alarini topshirdi.

2022-12-29 18:24:59